

**METAFORA - MADANIYATNING KO'RSATKICHI***Ergasheva Sevara Yusuf qizi**Jarqo 'rg'on tumani 11-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi**„Ingliz tili” fani o'qituvchisi*

**Anotatsiya:** Bu maqola o'zbek tilidagi ma'no ko'chish uslublari, ularning turlari, tasnifi haqida ma'lumotlar berilgan va ularga misollar ham keltirilgan. Ma'no ko'chish uslublari biri bo'lgan metafora haqida ma'lumotlar berilgan va misollar bilan yanada chuqurlashtirib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Metafora, madaniy, ko'rsatkichlar, mano ko'chish, qoshlari kamon, kipriklari o'q, lablari g'uncha, tishlari inju, oy yuzli, gulyuz, pariroy, evagorus, hodisa, ko'chish.

**Annotation:** This article provides information about methods of transfer of meaning in the Uzbek language, their types, classification, and examples of them. Information about metaphor, which is one of the ways of transferring meaning, is given and further elaborated with examples.

**Key words:** Metaphor, cultural, indicators, mano migration, eyebrows bow, eyelashes arrow, lips bud, teeth pearl, moon-faced, gulyuz, pariroy, evagoras, phenomenon, migration.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о способах передачи смысла в узбекском языке, их видах, классификации и примерах. Приводятся и дополнительно поясняются примерами сведения о метафоре, которая является одним из способов передачи смысла.

**Ключевые слова:** Метафора, культура, индикаторы, mano миграция, брови бантик, ресницы стрелка, губы бутон, зубы жемчужные, луноликий, гулюз, парирой, эвагорас, феномен, миграция.

**Kirish.** "Qoshlari kamon, kipriklari o'q, lablari g'uncha, tishlari inju, oy yuzli, gulyuz, pariroy bu kabi gozal so'zlarni faqatgina o'zbek adabiyotida ko'rishingiz mumkin. Chunki bu so'zlardan foydalanish bu kabi uslub o'zbek shoirlariyu, o'zbek yozuvchilariga hosdir.

Borliqdagi narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomlari ma'lum bir asosga ko'ra boshqa narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomi sifatida ham qo'llaniladi. Bunda bir leksema ma'no ko'chishi asosida bir necha predmetlarni nomlab keladi. Omonimdan farqli ravishda ko'chimda yangi ma'no hosil qiluvchi so'zning o'z va ko'chma ma'nosi o'rtasida muayyan ma'noda bog'liqlik mavjud bo'ladi.

"**Metafora**" atamasi ilk bor Izokrat tomonidan "Evagorus" asarida qo'llangan. Ko'chimning bu turi ikki narsa yoki hodisa o'rtasidagi har qanday jihatdan

o'xshashlikka asoslanadi. Metaforik ma'nolar insonning tashqi ko'rinishiga, jismoniy va ruhiy holatiga, tana a'zolari harakatiga, hayot bosqichlariga, kiyim-kechaklari va ularning qismlariga asosan yuzaga kelishi mumkin.

So'zlarda ikki xil ma'no turi mavjud bo'lib. Birinchisi o'z ma'no, ikkinchisi esa ko'chma ma'no deb yuritiladi. Birinchi ma'no turiga keladigan bo'lsak, o'z ma'no so'zlarning yakka holda kelganda ham matn ichida kelganda ham bir manoni anglatga bu o'z ma'noli so'z deyiladi. Agar yakka holdagi ma'nosi bilan matn ichidagi ma'nosi ikki xil bo'lsa unda bu so'z matn ichida ko'chma ma'noda qo'llanayotgan bo'ladi. Qanday qilib so'zning o'z ma'noda va ko'chma ma'noda qo'llanilayotganini topishimiz mumkin degan savolga biz shunday deb javob beramiz: bu juda onson matn ichidagi so'larni yakka holda qo'llab ko'ramiz bunda yuqorida aytganimizdek matn ichidagi so'z yakka holda kelganda ham matn ichida kelganda ham bir xil ma'no anglatga o'z ma'noda qo'llanilayotgan yoki yakka holda boshqa ma'no anglatga ko'chma ma'noda qo'llanilayotgan bo'ladi. Buni sizga bir qancha misollar yordamida tushuntirib berishimiz mumkin. Misol uchun: "Sovuq niyyat qilma do'stim" degan gapdagi "sovuq" so'zini yakka holda qo'llab ko'ramiz "sovuq" so'zi havoga, suvga nisbatan o'z ma'noda qo'llaniladi. "Sovuq niyyat", "sovuq nafas", "sovuq bashara" bunday birikmalar bilan gaplarda kelganda "sovuq" so'zi o'z ma'nodan chiqib ko'chma ma'noda qo'llanilayotgan bo'ladi. "Bir sixga qornim to'yib qoldi" bu gapda esa "six" so'zini yakka holda qo'llab ko'ramiz "six" so'zi yakka holda qo'llanganda six ya'ni temir narsa buyun ma'nolarini anglatadi va u yiyiladigan narsa emas bu so'z ham yakka holda qo'llanganda va matn ichida kelganda ikki xil ma'nolarni anglatyapti va matn ichida ko'chma ma'noda qo'llanilyapti. Mana so'zlarning ikki xil ma'nosini o'z va ko'chma ma'nosini va uni qanday qilib topishni o'rganib oldik.

Metafora- metaphora "ko'chirma" demakdir. Predmet, narsa, hodisalarning tashqi o'xshashiligiga, shakliy, ichki belgilariga asoslanib ma'no ko'chishiga metafora deyiladi. Ko'proq tashqi o'xshashlikka metafora deyiladi. Metafora usulida nom ko'chishi narsa va hodisalar o'rtasida nisbiy o'xshashlikka ko'ra bo'ladi va ularning rangi, shakli, harakati ikkinchi shunday predmet belgisi bo'lgan nomini oladi. Bu usul bilan ma'no ko'chishi uchun umumiy belgi tushuncha saqlanadi. Misol uchun "qora niyyat" bunda qora so'zida ma'no ko'chishi kuzatilyapti. Qora qalam bo'lganda o'z ma'no bo'lardi, qora rang bilan ichidagi yomon niyyatni o'xshatganligi sababli metafora usulida ma'no ko'chyapti. Xususan, Arastu bu atamani keng ma'noda qo'llagan. Faylasuf o'zining "Ritorika" asarida quyidagi fikrni ifodalaydi: "Metafora yuksak darajada aniqlik, yoqimlilik va oxorlilik jozibasiga ega, undan o'rinli foydalanish nutqni bezaydi"

**Metafora ko'proq quidagilarga ko'rishimiz mumkin:**

1. Odam tana azolariga (qo'l, oyoq, yuz, lab, tish, yelka).
2. Kiyimlar va ularning biror qismiga (yoqa, etak).

3. Hayvon, parranda va hashorotlarning biror azosi (qanot, dum, tumshuq, shox).
4. O'simlik va uning qismi (ildiz, tomir).
5. Qurollar (nayza, pichoq).

Masalan: Tog'ning etagidagi uy. Uyimiz daryo yoqasida.

Siz, albatta, shunday iborani ko'p eshitgansiz: “Oyog'ini qo'liga olib yugurmoq”, ya'ni judayam tez. Uning asosida — metaforik solishtirish, yorqin, namoyon timsollarni qiyoslash. Bunday muqoyasa metafora deb ham ataladi. Nomlanish “Ko'chirish” ma'nosini anglatuvchi yunoncha “Metafora” so'zidan paydo bo'lgan. Darhaqiqat, ikki buyum yoki hodisa solishtirilayotgan paytda birining alomatlari yoki sifatlari boshqasiga ko'chadi. Masalan, yomg'ir qattiq yog'ayotganda, — “Chelaklab qo'ygandek”, deyдилar. Bunda to'kilayotgan suvning ikkita timsoli solishtiriladi — biroq ulardan birortasi ham to'gridan-to'gri atalmaydi. Kengaytirilgan tasvirlash o'rnida ularni yaqinlashtiruvchi mushtarak belgi — suv shovqini tilga olinadi. Bunday “qisqartma solishtirish” ham metafora deb ataladi. Metafora folklor va adabiyotda ko'p qo'llanadi. Masalan, siz ertaklarda buyumlarning nomiga duch kelasiz — “tovuq oyogida turgan chayla” yoki “sutli daryolar, sharbatli sohillar”. Bu metaforalarning asosida esa xuddi o'sha solishtirish: chayla qurilgan poydevor shakli, suv va qumli sohilning rangi. Metaforalar ular asosida yorqin va kutilmagan timsollar yaratiladigan she'riy nutqda eng ko'p uchraydi. Masalan, yomg'irda qolib ketib ho'l bo'p ketgan odamlarni Mayakovskiy shunday tasvirlaydi: “piyodalar tumshug'i emdi yomg'irni”. Timsol bilan birlashtirilgan metaforadan foydalangan shoir odatiy hodisani kutilmagan nuhtai nazardan ko'radi. Shu tarzda metafora shunchaki shoirona nutqning ziynatigagina emas, balki muallif fikrini ifodalash vositasiga aylanadi.

### **Metafora -madaniyatning ko'rsatkichlari.**

Metafora -madaniyatning ko'rsatkichlaridan xususiyatlari biri bu metafora tildagi universal hodisalaridir.

**Metafora tildagi universal hodisa.** Xizmat taqozosi bilan xorijiy davlatlarda bir muddat bo'lib qaytganimdan keyin do'stlarim va yaqinlarim ko'pincha: “U yoqlarda ob-havo qanaqa ekan?” deb so'rashadi. “Havosi juda dim, namli” deyman. Bu o'ta jo'n javob bo'ladi va suhbatdoshlarimning men his qilganlarni menday his qilmaganliklarini payqayman. Shunda: “Kiyiming badaningga yopishib qoladi. Pardozlaring oqib ketadi. Baliqday nafas olasan” deb ma'juziy, metaforik tushuntirishga harakat qilaman. Ana shunda ularning yuz- ko'zlarida o'zlari bo'lmagan mamlakatning ob-havosi haqida o'zlari bo'lgandek tasavvur hosil bo'lganini ko'raman. Zero, Gegel: “o'z ma'nosida qo'llaniladigan so'z o'z-o'zidan tushunarli ifodadir, metafora esa boshqacha ifodadir” 1, – deb yozgan edi. Qator adabiyotlarda metaforaning yashirin o'xshatish ekanligi qayd qilinadi 2. Binobarin, Aristotelning fikricha, o'xshatish ham metaforadir, chunki ular o'rtasida arzimagan farqlar mavjud, xolos. Masalan, u sherday tashlandi ifodasida o'xshatish bor, agar ifoda sher tashlandi

tarzida o'zgartirilsa, metafora yuzaga keladi 3 . Metaforalarning mazmun jihati, shuningdek, ularga birlashtirilgan madaniy konnotatsiyalar kognitiv bilishning manbasiga aylanib bormoqda. Shuning uchun ham obrazli-motivlashgan so'zlar (metaforalar) madaniy belgilarning ko'rsatkichiga aylanadi. Lingvokulturologiyani metaforalarning aynan mana shu jihati qiziqtiradi. Kognitiv tilshunoslikning taniqli vakili J.Lakoff hamda mashhur faylasuf M.Jonson metaforalarni shunday izohlashadi: "Metaforalar nafaqat kundalik hayot, nafaqat til, balki tafakkur va faoliyatimizga ham kirib boradi. Bizning kundalik tushunchaviy tizimimiz ham o'z mohiyatiga ko'ra metaforikdir"

Inson nutqida metaforalarning tez-tez uchrab turishi mazkur mexanizmning ma'lum bir tizim asosida o'rganilishi kerakligini taqozo etgan. Shuning uchun ham olimlar ularni alohida tizimga birlashtirgan holda tahlil qilib, "metaforik konseptlar" yoki "konseptual metaforalar" deb atashgan.

"Blending nazariyasi" asoschilaridan M.Terner va J.Fokonye kognitiv (konseptual) metaforalarni murakkab dinamik va birlashtiruvchi jarayonni namoyon etuvchi, yangi - qorishiq mental maydonlar yaratilishiga sabab bo'luvchi hodisa sifatida baholaydilar. Kognitiv metaforalarning diskursiv tadqiqi ularning, asosan, publitsistik va siyosiy diskursda alohida modellarni hosil qila olish imkoniyatini isbotlaydi. Bunda metaforik model atamasi: 1) metaforaning o'zini: 2) freym (mavhum tasvirning modeli, obyekt, hodisa, jarayon mohiyatining eng kichik tavsifi)li tahlilga asoslangan metaforik ifodalarning tizimli konstruksiyasini ifodalaydi.

Kognitiv metafora borasida Durdona Xudoyberganova ham fikr bildirib, undagi zamonaviy metaforologiyaning g'oyalarga uyg'un holda, ularning antroposentrik tabiatiga urg'u beradi. Kognitiv metaforani bilish, tushunchani kategoriyalashtirish, konseptuallashtirish, baholash va olamni tushuntirishning samarali usullaridan biri sifatida baholab, uni shaxs kognitiv faoliyatiga tegishli, bir tushuncha yoki hukm haqidagi bilim tuzilmalari asosida ikkinchi tushuncha yoki hukmni konseptuallashtirish hodisasi sifatida ta'riflaydi

### **Xulosa (Summary)**

Xulosa qilib aytganda, metafora har bir xalqning mentalligini, milliy ongini, badiiy tasvir vositasini, folklori, diniy-dunyoviy tafakkur tarzini o'zida yaqqol namoyon qiluvchi birlikdir. Insonning uzoq yillik hayot tajribasi, milliy-madaniy qadriyatlari, tarixiy kechinmalari hamda geografik joylashuvi metaforalarning shakllanishida muhim omil vazifasini o'taydi. Metaforaga kognitiv yondashuv ularni inson tafakkuri va bilish faoliyatining mahsuli, uni konseptual ifodalovchi konstruksiyalar sifatida ko'rish imkonini beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. [https://uzpedia.uz/pedia/metafora\\_nima](https://uzpedia.uz/pedia/metafora_nima)

2. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-tilida-ma-no-kochish-usullari-metafora-metanomiya-sinekdoxa-vazifadoshlik/viewer>
3. <https://oefen.uz/uz/documents/referatlar/umumiy/metafora-madaniyatning-korsatkichi>
4. [https://uniwork.buxdu.uz/resurs/56418\\_1\\_A7F52A0BBDC9BDE7B0B8AD7E11FF04A2E095787A.pdf](https://uniwork.buxdu.uz/resurs/56418_1_A7F52A0BBDC9BDE7B0B8AD7E11FF04A2E095787A.pdf)
5. Xo'jamqulov A. O'zbek tilida metaforaning tasniflanishiga doir. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20yilligiga bag'ishlab chiqarilgan ilmiy maqolalar to'plami. Lingvist. 2-kitob. -T.: Akademnashr, 2011.-B. 85-88.
6. Musayev K. Tarjima nazariyasi asoslari. Darslik. T.: Fan, 2005. B. 214.
7. Jo'rayeva B.M. O'zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari: Filol.fan.dok....dis. Samarqand, 2019.20 b.
8. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. -T.: Fan, 2013.